

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI ONLAYN TIZIMLAR ASOSIDA STATISTIK BAHOLASHDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING SWOT TAHLILI

Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich
TDIU, dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola tijorat banklari faoliyatini onlayn tizimlar asosida statistik baholashda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llashning SWOT tahlilini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy Mavzuga oid Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.. hamda SWOT tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Natijalar SI texnologiyalarining kuchli va zaif tomonlarini, mavjud imkoniyatlar va potentsial xavf-xatarlarni aniqlash orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirishga hamda raqamli transformatsiya jarayonida strategik qarorlar qabul qilishga yordam berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tijorat banklari, onlayn tizimlar, statistik baholash, SWOT tahlil, moliyaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) для статистической оценки деятельности коммерческих банков с использованием онлайн-систем и методологии SWOT-анализа. Исследование основано на анализе нормативных документов, обзоре отечественной и зарубежной литературы, а также непосредственно на SWOT-анализе. Результаты показывают, что внедрение ИИ позволяет выявлять сильные и слабые стороны, существующие возможности и потенциальные угрозы, что способствует повышению эффективности банковской деятельности и поддерживает стратегическое принятие решений в рамках цифровой трансформации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, коммерческие банки, онлайн-системы, статистическая оценка, SWOT-анализ, финансовые технологии, цифровая трансформация.

Annotation. This article examines the application of artificial intelligence (AI) technologies for the statistical evaluation of commercial banks' activities based on online systems using SWOT analysis. The study relies on the analysis of regulatory documents, review of local and foreign literature, and SWOT analysis methodology. The results demonstrate that AI implementation enables identification of strengths and weaknesses, existing opportunities, and potential threats, thereby enhancing bank performance and supporting strategic decision-making in the context of digital transformation.

Keywords: artificial intelligence, commercial banks, online systems, statistical evaluation, SWOT analysis, financial technologies, digital transformation.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda bank-moliya tizimini modernizatsiya

qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish yoʻlida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining onlayn faoliyatini ilmiy asosda baholash dolzarb boʻlib, ayniqsa, moliyaviy xizmatlar hajmi ortishi, raqobatning kuchayishi, mijozlar ehtiyojlarining tezkor oʻzgarishi va global moliyaviy tendensiyalar fonida sunʼiy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish va SWOT tahlil bilan uygʻunlashtirish muhim ilmiy-amaliy va strategik yoʻnalish sifatida eʼtirof etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari tijorat banklarining xizmat koʻrsatish sifatini oshirish, kreditlash va moliyaviy oqimlarni boshqarish samaradorligini taʼminlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, raqobatbardosh moliyaviy muhitni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son Farmoni bank tizimida zamonaviy axborot va moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini taʼminlash, shuningdek inson omili taʼsirini kamaytirish boʻyicha tizimli va tezkor chora-tadbirlarni belgilaydi [1]. Mazkur strategiyada 2025-yilgacha xususiy banklar aktivlar ulushi 60%, banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlar ulushi 70%, depozitlar ulushi 50–60%, nobank kredit tashkilotlari ulushi 4% ga yetkazilishi koʻzda tutilgan, xorijiy valyutadagi majburiyatlar ulushi esa 40–45% ga kamayadi. Shu bilan birga, SI texnologiyalari bank operatsiyalarini optimallashtirish, kredit xavfini aniqlash, moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, risklarni kamaytirish, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, resurslardan samarali foydalanishni taʼminlash va mijozlarga sifatli xizmat koʻrsatishda strategik ahamiyat kasb etadi. SWOT tahlil esa texnologiyaning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda potentsial xavf-xatarlarni tizimli aniqlashga yordam berib, bank tizimi samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, raqamli iqtisodiyot talablariga mos boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa mavzuning ilmiy, amaliy, strategik va iqtisodiy dolzarbligini yanada oshiradi []. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyatini onlayn tizimlar asosida statistika va SI texnologiyalari yordamida baholash, ular samaradorligini tahlil qilish va SWOT metodologiyasi orqali imkoniyat hamda xavf-xatarlarni aniqlash bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli rivojlanishi va moliyaviy barqarorlikni taʼminlash borasida dolzarb va muhim ilmiy yoʻnalish hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda tijorat banklari faoliyatini onlayn tizimlar asosida statistik baholashda sunʼiy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi oʻrganildi. Tadqiqot metodologiyasi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, mahalliy va xorijiy mavzuga oid adabiyotlar sharhi hamda SWOT tahlilini oʻz ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Soʻnggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini takomillashtirishda sunʼiy intellekt (SI) texnologiyalarining oʻrni sezilarli darajada oshib bormoqda. Bank tizimida onlayn xizmatlarni keng joriy etish, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish va mijozlar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish SI texnologiyalarining asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar nafaqat

amaliy jihatdan, balki statistik tahlil va prognozlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu yo‘nalishda olib borilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning asosiy g‘oyalari tahlil qilinadi.

Mahalliy olimlar Marina Abdurashidova va Muhammad Eid Balbaa [1] “Artificial Intelligence in the Banking Sector in Uzbekistan: Exploring the Impacts and Opportunities” mavzusidagi o‘z tadqiqot ishlarida “sun’iy intellekt texnologiyalari bank xizmatlari sifatini oshirishi, firibgarlikni aniqlash tizimini kuchaytirishi, biroq kadrlar malakasi va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha muammolar mavjudligini ta’kidlaydi”. Bu esa SWOT tahlilida “kuchli” va “zaif” tomonlarni belgilashda muhimdir.

Boshqa bir mahalliy olim Dilmurod Suyunov [3] “Problems in the Development of Remote Banking Services in Commercial Banks of Uzbekistan” mavzusidagi tadqiqotida tijorat banklarida masofaviy xizmatlar rivojlanishiga ichki (xodimlar malakasi, tashkilot tizimi) va tashqi (aholi xabardorligi, normativ baza) omillar ta’sirini tahlil qiladi. Bu jihatlar SWOT tahlilida “zaif tomonlar” va “xavf-xatarlar”ni aniqlashda ahamiyatlidir.

Xorijiy olimlar Umer Noreen [4] “Banking 4.0: Artificial Intelligence (AI) in Banking Industry & Consumer Perspective in Asia” mavzusidagi tadqiqotida “Banking 4.0” kontseptsiyasini o‘rganib, Osiyo mamlakatlarida sun’iy intellektning bank xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini va mijozlar tomonidan ijobiy qabul qilinishini ko‘rsatadi. Bu “imkoniyatlar” blokini kuchaytiradi.

E. B. Gyau [5] “Transforming Banking: Examining the Role of AI Technology in Financial Performance” mavzusidagi tadqiqotida sun’iy intellekt banklarning moliyaviy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, risklarni kamaytirishini va strategik boshqaruvni takomillashtirishini asoslab beradi. Bu “kuchli tomonlar” va “imkoniyatlar” tahlilini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish nafaqat raqamli transformatsiya jarayonining ajralmas qismi, balki bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishning muhim strategik omilidir. Mahalliy olimlar SI texnologiyalarining amaliy joriy etilish jarayonidagi muammolarni (kadrlar, infratuzilma, huquqiy asoslar) yoritgan bo‘lsalar, xorijiy tadqiqotchilar SI texnologiyalarining bank tizimi samaradorligiga ijobiy ta’siri va iste’molchi ishonchi omillarini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. SWOT tahlilining to‘rt asosiy elementi — kuchli tomonlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavf-xatarlar — ni ilmiy asoslashda muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Onlayn bank xizmatlari va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish tijorat banklarining operatsion samaradorligini oshirish, mijozlar bilan interaktiv aloqalarni kuchaytirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, banklar uchun bu jarayonlarda mavjud ichki va tashqi omillarni tahlil qilish muhimdir. SWOT tahlili sun’iy intellekt texnologiyalarining kuchli va zaif tomonlari hamda mavjud imkoniyatlar va xavf-

xatarlarni tizimli tarzda aniqlash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda tahlil natijalari keltirilgan (jadval).

Jadval

Tijorat banklari faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Onlayn tizimlar orqali xizmat ko'rsatish samaradorligi oshadi	Kadrlar malakasi yetarli emas
Firibgarlikni aniqlash va xavfsizlik tizimlarini yaxshilash imkoniyati mavjud	Ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar mavjud
Kredit reytinglarini aniqlash va qarz riskini baholash imkoniyati	Tizimni joriy etish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari yuqori
Mijozlar bilan interaktiv aloqalarni kuchaytiradi	Ichki jarayonlar va tashkilot tizimi moslashuvi past
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavf-xatarlar (Threats)
Moliyaviy texnologiyalar va raqamli bank xizmatlariga talab ortmoqda	Kiberxavfsizlik va onlayn xakerlik xavfi mavjud
Xorijiy investitsiyalar va strategik hamkorlik imkoniyatlari	Normativ-huquqiy baza yetarli darajada rivojlanmagan
Raqamli transformatsiya orqali bozor ulushini oshirish	Mijozlarning raqamli xizmatlarga ishonchsizligi
Analitik va prognoz tizimlarini rivojlantirish imkoniyati	Tizimdagi texnik nosozliklar operatsion jarayonlarni sekinlashtirishi mumkin

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini tijorat banklarida joriy etish bank faoliyatini samarali boshqarish, mijozlar bilan interaktiv aloqalarni kuchaytirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga imkon beradi. SWOT tahlil natijalari orqali kuchli tomonlar banklar uchun operatsion jarayonlarni optimallashtirish va xizmat sifatini oshirish imkoniyatlarini ta'kidlasa, zaif tomonlar kadrlar malakasi, ma'lumotlar xavfsizligi va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadi. Shu bilan birga, imkoniyatlar raqamli transformatsiya, innovatsion xizmatlar va bozor ulushini oshirishga xizmat qilsa, xavf-xatarlar kiberxavfsizlik, normativ-huquqiy muammolar va mijozlarning raqamli xizmatlarga ishonchsizligi kabi tahdidlarni o'z ichiga oladi.

Natijada, SWOT tahlil tijorat banklariga SI texnologiyalarini joriy etish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi, barqaror rivojlanish va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Takliflar:

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Banklar SI texnologiyalaridan samarali foydalanishi uchun xodimlarning malakasini oshirish va maxsus treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

Ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlikni kuchaytirish: Banklar onlayn tizimlarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, kiberxavfsizlik choralari mustahkamlash va monitoring tizimlarini joriy etishi zarur.

Normativ va huquqiy bazani rivojlantirish: SI texnologiyalarini bank tizimida qo'llashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish muhimdir.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish: Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va prognoz tizimlaridan foydalangan holda mijozlarga yanada sifatli va tezkor xizmatlar ko'rsatish lozim.

Strategik investitsiyalar va hamkorlik: Xorijiy strategik investorlar va moliyaviy texnologiyalar kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali banklarning innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshligi oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Abdurashidova, M. S., & Balbaa, M. E. Artificial Intelligence in the Banking Sector in Uzbekistan: Exploring the Impacts and Opportunities. – Tashkent: University of World Economy and Diplomacy, 2023. – 12 p.
3. Suyunov, D. Kh. Problems in the Development of Remote Banking Services in Commercial Banks of Uzbekistan. – Scholar Express, 2023. – URL: <https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/download/3154/2703/5790>
4. Noreen, U. Banking 4.0: Artificial Intelligence (AI) in Banking Industry & Consumer Perspective in Asia. – MDPI, 2023. – DOI: 10.3390/su15043682
5. Gyau, E. B. Transforming Banking: Examining the Role of AI Technology in Financial Performance. – 2024.